

**Boshlang'ich sinf fanlarini o'qitishda Power Point dasturi orqali
taqdimotlar tayyorlash**

Ne'matov Oybek Erkin o'g'li

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

„Boshlang'ich ta'lim" kafedraasi o'qituvchisi

Abdurahmonova Mohichehra Mumin qizi

Shahrisabz davlat Pedagogika instituti

„ Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 2-kurs talabasi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich ona tili, matematika va tabiiy fanlarni o'qitishda Power Point dasturidan foydalanish hamda fanlar mavzularini tushuntirishda Power Point dasturida ko'rgazmali qurollar tayyorlash haqida bayon qilingan.*

***Kalit so'zlar:** 4K modeli, taqdimot, Power Point dasturi, animatsiya effektlari*

Kirish.

Bugungi kunda zamonaviy pedtexnologiyalardan yaratish hamda ulardan foydalanish zamon talabi hisoblanadi. Chunki, zamonaviy dars o'tish o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, O'zbekiston ta'lim sifatini jahon ta'lim talablariga teng darajaga ko'tarish har bir pedagog o'qituvchi oldida asosiy vazifa hisoblanadi. Bilamizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan „ Xalq ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga yilga kelib PISA (The Programme for Futernational Student Assessment) Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytingi bo'yicha jahonning birinchi 30ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishiga erishish bosh masalalardan biri ekanligi ta'kidlangan. Xuddi shu o'rinda Xalq ta'limi tizimida olib borilayotgan o'zgarishlarga va kiritilayotgan innovatsiyalarga e'tibor qaratamiz. Eng avvalo, darsliklarning yangi 4K modelida ishlab chiqilishi shu o'rinda muhim qadam bo'ldi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya.

Yangilanish, rivojlanish har bir mamlakat uchun bosh maqsad hisoblanadi. Buning uchun avvalo, yosh avlodga zamon talabiga mos va xos bo'lgan ta'lim va tarbiya berish darkor. Yuqorida aytganimizdek, xuddi shu maqsad yo'lida yangi darsliklarning 4K modelida ishlab chiqilishi muhim tashabbuslardan biri bo'ldi.

4K modeli o'zi nima?

„ Bu metodologiya o'z ichiga 4 asosiy kompetensiyani oladi:

1. Kollaboratsiya - darsliklar o'quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o'quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o'zaro qo'llab - quvvatlash ko'nikmalarini o'rganishga ko'maklashadi.

2. Kommunikativlik - darsliklar o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatini rivojlantiradi. O'quvchilar o'z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo'llashni o'rganadilar.

3. Kritik fikrlash - ushbu metodologiya o'quvchilarning axborotni tanqidiy baholash o'z fikri va mulihazalarini shakllantirish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Xuddi shu kabi darslarni yangi pedtexnologiyalardan foydalanib o'tish ham Rivojlanish konsepsiyasiga qo'shilgan katta hissa bo'ldi. Masalan, yangi mavzuni tushuntirishda taqdimotlar tayyorlab ulardan foydalanish.

Taqdimotlar tayyorlash uchun bir necha unumli dasturlar mavjud: Power Point, WPS Office kabilar va h.k

Shularning ichida Power Point dasturi eng unumli taqdimot tayyorlash dasturi hisoblanadi.

Power Point dasturi nima?

Power so'zining ma'nosi „biror bir narsaga jon bag'ishlash" yoki „qurilmalarni yoqish" , point esa „ nuqta" degani. Umumiy olganda Power Point so'zining ma'nosi „ nuqtani ishlatish", „ nuqtaga jon kiritish" ma'nosini bildiradi.

Power Pointda ikkita asosiy tushuncha mavjud:

- slayd - multimedia tizimlarini ko'rsatuvchi sahifa.

- taqdimot - slaydlar va maxsus effektlar to'plami bo'lib, u bitta faylda saqlanadi.

Power Point dasturi bir necha vazifalarni bajaradi:

- Taqdimotlar tayyorlash
- Rasm, matn va diagrammalarni slaydlarga joylashtirish
- Internetda hamkorlikda ishlash
- MS Office dasturlari bilan hamkorlikda ishlash

Power Pointda taqdimotlar yaratish oson va qulaydir. Bu dasturda yaratilgan taqdimotlarga turli xil animatsiyalarni yaratish mumkin. Unda o'tish effektlarini ham yaratish mumkin. Masalan, boshlang'ich sinflarda matematika fanidan biror masalani tushuntirish uchun taqdimotlar tayyorlandi.

Misol uchun, Anorada 8ta olma bor edi. U onasiga 2ta olmasini berdi. Anorada nechta olma qoldi?

Bu masala bo'yicha avval taqdimot slaydlariga 8ta olmasini joylashtirish kerak. Olmalarni turli xil bitta - bitta paydo bo'lish yoki barchasini birga kiritish mumkin. Keyin shu olmalardan ikkitasini animatsiya orqali olib qo'yamiz va masalaning javobini topish mumkin. Mana shu oddiy ish bilan masalaning javobini samarali tarzda topishimiz hamda o'quvchilarda mavzularni tushuntirishda qulaylik yaratish mumkin.

Nafaqat katta yoshdagi o'quvchilarni balki boshlang'ich sinf o'quvchilarini ham yangi texnologiyalar bilan tanishtirish eng foydali ish hisoblanadi, albatta.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, hozirgi rivojlanish va tarqqiyot davrida biz pedagoglar ham o'z o'quvchilarimizni zamon talabiga mos holda voyaga yetkazishimiz kerak. Shu maqsadda bugungi kunda 1-sinflarga ham informatika fani kiritildi.

Bu esa bolalarda yangi va zamonaviy hayotni ko'rsatish uchun harakatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. G'ulomov S. S. , Shermuhammedov A. T. , Begalov B. A. „Iqtisodiy informatika" O'zbekiston 1999

2. Qurbanov Nurjahon. „, Taqdimot usullari" Updated Jan. 13. 2021.

3. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: learning objectives. — 2017

4. UNESCO. School and teaching practices for twenty-first century challenges: lessons from the Asia-Pacific region, regional synthesis report. — 2016.

Internet tarmoqlari

[www. ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

[www. kun.uz](http://www.kun.uz)